

THE ROLE OF LEXICAL UNITS IN LANGUAGE TEACHING METHODS

Hasanboyeva Ogiloy Ibrajanovna

Uzbek State University of World Languages

Faculty of English 2

Lecturer at the Department of English Applied Sciences №2

Annotation: This article provides information on the role of lexical units in language teaching methodology.

Keywords: Lexicology, linguistics, word analysis, lexical units.

TIL O'RGATISH METODIKASIDA LEKSIK BIRLIKLARNING O'RNI

Xasanboyeva O'g'iloy Ibrajanovna

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili 2 fakulteti

Ingliz tili amaliy fanlar №2 kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til o'rgatish metodikasida leksik birliklarning o'rni haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Leksikologiya, tilshunoslik, so'zlar tahlili, leksik birliklar.

Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra dunyoda uch mingdan ortiq tillar mavjud ekan. Tillar hudud jihatdan dunyo tillari va hududiy tillarga bo'linadi. Hududiy tillar faqat ma'lum bir hududdagi odamlar so'zlashadigan tildir. Dunyo tillari esa dunyodagi ko'pgina xalqlar tomonidan so'zlashiladigan tildir.

Leksikologiya bo'limi so'z vauning ma'nolarini o'rganadigan tilshunoslikning yirik bir bo'limidir. Har bir tildagi leksik birliklar muayyan tildagi mentalitetni va shu bilan birgalikda urf-odat va an'analarni aniqlab keladi. Jahon tilshunosligi tarixida til hodisasiga xilma-xil va bir-biridan farqli

yondashuvlar yuzaga kelganligini kuzatish mumkin. Tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida lingvistik birliklarni antroposentrik nuqtai nazardan o`rganish eng ustuvor yo`nalishlardan sanaladi. Buning sababi shundaki, nutqiy faoliyatning subyektlari bo`lgan so`zlovchi va tinglovch bo`lgan shaxs tadqiqotchilar e`tiboridan chetda qoldi. So`zlovchi va tinglovchisiz nutqiy faoliyat haqida bahs yuritildi. Vaholanki, hech bir tilni “til egasi” dan ajratgan holda to`g`ri va to`liq o`rganish mumkin emas. Jahon tilshunosligida til tizimini shaxs bilan bog`liq tarzda o`rganish, asosan, lingvopragmatika, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda namoyon bo`lgan. [3:104]

Jahonda eng ko`p tarqalgan tillardan biri bu, albatta, ingliz tili hisoblanadi. Ushbu tilda dunyoning barcha mamlakatlarida gaplashiladi. Ingliz tili ham yuqorida qayd etilganidek, o`ziga xos shaxs bilan bog`liq psixologik xususiyatlarga ega. Ya`ni Ingliz tilida Ingliz xalqining o`ziga xos mentaliteti, urf-odatlarini, dunyoqarashlari, orzu-o`ylari aks etgandir.

Olimlarning hisob-kitoblariga ko`ra, Ingliz xalqi dunyodagi eng xushmuomala, shirinso`z, optimistik fikrlaydigan xalq ekan. Ingliz tilida xursandchilikni, mamnunlikni, xushmuomalalikni ifodalovchi so`zlar anchani tashkil qiladi ekan. Ular quyidagilardan iboratdir:

Ok,

All right,

Ooh great,

Great job,

Fine, thank you,

Nice to meet you.

Good,

Excellent.

Bu soʻzlarning hammasi oʻzbek tiliga *yaxshi, ajoyib, aʻlo, zoʻr* deb tarjima qilinadi. Biroq oʻzbek tilida bu kabi soʻzlarning oʻrniga koʻpincha “yaxshi” soʻzi ishlatiladi. Masalan, quyidagi dialogga eʼtibor qarataylik:

- Kechagi ishingni hali bitirmadingmi? - Alisher aka ogʻirlik bilan soʻradi.
- Allaqachon bitirib qoʻyganman, javob berdi Karimbek.
- Yaxshi, rahmat, - javob berdi Alisher aka astagina.

Endi quyidagi dialogga eʼtiboringizni qarating:

- Have not you finished that work yet? Mr Smith wondered.
- Why *not*, I have already finished it. The secretary answered.
- Ok, I am really glad!!! Great job!!! It’s very good of you!!!

Eʼtibor bering: Ingliz tilida hayratlanish, quvonch, biror narsadan sevinishni ifodalovchi soʻzlar keng qoʻllaniladi.

Bundan tashqari, ingliz tilida afsuslanish, kechirim soʻrash soʻzlari ham maʼnoning kuchayib borish jihatidan farqlanadi.

- ***Excuse*** me, can I have a definition, please.
- ***I am so sorry*** for being late.
- ***Pardon***, can you repeat your last sentence, please. I could not catch you.

Bu misollardan shu narsa maʼlum boʻladiki, Ingliz tilida boshqa tillardan farq qiladigan kechirim soʻrash soʻzlari mavjud ekan. Yaʼni, *excuse* – biror bir kishi eʼtiborini tortish uchun, *Sorry* – biror bir kishidan qilgan aybi uchun kechirim soʻrash maʼnosini bildirsa, *pardon* esa boshqalaridan eng xushmuomala formaligi bilan ajralib turadi.

Shunisi qiziqki, Oʻzbek xalqiga xos boʻlgan *halollik, insoflilik* kabi xususiyatlarning ham juda koʻp ekvivalentlari mavjud. Bu kabi tushunchalar quyidagi soʻzlar bilan ifodalniladi: *insof, vijdon, imon, xolislik, begʻarazlik, mardlik, joʻmardlik, halollik* va boshqalar. Bu soʻzlarning boshqa tillarda deyarli tarjimasi yoʻq. Yuqoridagi soʻzlarga

yaqin ma'nodagi so'zlarni topa olishimiz mumkin, lekin tarjima jihatidan to'la mos keladigan so'zlarni topib bo'lmaydi.

Masalan, ingliz tilidagi *justice, honesty, fairness* kabi so'zlar bularga misoldir.

Ummuman olganda, O'zbek xalqiga xos bo'lgan barcha xususiyatlar bizning mo'jazgina shu ona tilimizda aks etgan. Tarixdan ham ma'lumki, O'zbek xalqi qadim-qadimdan jahon sivilizatsiyasiga juda katta hissa qo'shgan xalqdir. O'zbek xalqi mentalitetiga donolik, hozirjavoblik, topqirlik xislatlari mujassamlashgan. Bu xislatlar bizning tilimizda o'z ifodasini topgan. Bunda bizning maqollarimiz, ayniqsa, diqqatga sazovordir:

Ilm olish ninada quduq qazish bilan tengdir.

Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar,

Elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.

Ona yurtning omon bo'lsa, rang-u ro'ying somon bo'lmas.

Xalqimizning donoligiga qoyil qolish kerakki, ilm olish bu dunyodagi eng mushkul va mashaqqatli va sharaflı yumushdir. Agar siz shu quduqdan suv chiqara olsangiz, odamlarning "chanqog'i"ni qondirishingiz mumkin. Bu, albatta, eng sharaflı va mashaqqatli ishdır.

Ingliz tilida o'zidan yosh jihatdan katta odamni, yoki rasmiy ma'noda kishilar familiyalari oldidan Mr, yoki Miss, Mrs degan so'zlar ishlatiladi. Bu so'zlar o'zbek tiliga "*janob*", "*xonim*" deb tarjima qilinadi. Bu so'zlar ham ingliz tilining ichki psixolingvistik xususiyatini ko'rsatib beradi. Va bu ekvivalent juda chiroyli va ma'qul qilib tanlangan. O'zbek tilida esa bu so'z yuqori tabaqadagi kishilar va amaldorlar uchun ishlatilgan: ***Qozi domla muhtaram***

Teshaboy janoblarining iltifotlaridan mamnun bo'libdilar[2:104]. Vaholanki, hozirgi davrda bu so'z chet elliklar uchun qo'llaniladigan hurmat ma'nosidagi

rasmiy so'zimizga aylangan: *Tarjimon elchi janoblariga kulib qarab turar edi*. [3:273]

Demak, har bitta tilni o'rganishda o'sha xalning psixologiyasini, mentalitetini chuqur anglab yetishimiz darkor ekan. Zero, har bir til shu xalqning ma'naviy ko'zgusidir. Biz aynan shu ko'zguda butun bir millatni ko'ra olamiz va u bilan dildan suhbat qila olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Toshkent: Fan, 2013.- 265b.
2. Mirzakalon Ismoilov. Farg'ona tongi otguncha. Toshkent: Ma'naviyat, 2005.- 236b.
3. «O'zbek tilining izohli lug'ati» (Moskva, «Русский язык» nashriyoti, 1981-yil, 2-jild)
4. Anisimova A.G. Типология терминов англоязычного искусствovedeniya. M., 1994.
5. Akhmanova O.S Terminology: Theory and Method. Moscow, 1974.